

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/2025.27.12.Yu.01.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**MADRAHIMOVA GULJAHON RUZIMBOY QIZI**

**MA'MURIY SUD ISHLARINI YURITISHDA ISHDA ISHTIROK  
ETUVCHI SHAXSLARNING HUQUQIY MAQOMINI  
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma'muriy huquq.  
Moliya va bojxona huquqi

**Yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Science (DSc)**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)**

**Madrahimova Guljahon Ruzimboy qizi**

Ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomini takomillashtirish masalalari .....3

**Madrakhimova Guljakhon Ruzimboy qizi**

Issues of improving the legal status of persons participating in administrative proceedings .....25

**Мадрахимова Гулжахон Рузимбой кизи**

Вопросы совершенствования правового положения лиц, участвующих в административном судопроизводстве .....50

**E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'yxati**

Список опубликованных научных работ

List of published scientific works.....54

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/2025.27.12.Yu.01.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**MADRAHIMOVA GULJAHON RUZIMBOY QIZI**

**MA'MURIY SUD ISHLARINI YURITISHDA ISHDA ISHTIROK  
ETUVCHI SHAXSLARNING HUQUQIY MAQOMINI  
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma'muriy huquq.  
Moliya va bojxona huquqi

**Yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.DSc/Yu372 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Yusupov Sardorbek Baxodirovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Otaxonov Foziljon Xaydarovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Narimonov Bekzod Abduvaliyevich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent

**Babanazarov Kalbay Rustamovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/2025.27.12.Yu.01.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 15-sentabr soat 9:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36; faks: (99871) 233-37-48, e-mail: [info@tsul.uz](mailto:info@tsul.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1524-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 2-sentabr kuni tarqatildi.

(2026-yil 2-sentabrdagi 7-sonli reyestr bayonnomasi).



**A.M. Xashimhonov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
yuridik fanlar doktori, professor

**X.U. Turdiyev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi,  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent

**I.R. Bekov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar  
doktori, professor

## KIRISH (Fan doktori (DSc) dissertatsiya annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda davlat organlarining faoliyati ustidan sud nazoratini amalga oshirishda ma'muriy sudlar muhim o'rin tutadi. Xalqaro huquq tizimida davlatlar inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish majburiyatini olgan. Bu majburiyatni bajarishda milliy ma'muriy sudlar asosiy mexanizm hisoblanadi. "World Justice Project" (WJP) xalqaro nohukumat tashkiloti tomonidan e'lon qilingan reyting bo'yicha O'zbekiston 2024-yilda qonun ustuvorligi bo'yicha 142 ta davlat orasida 83-pog'onani, 2025-yilda esa 143 ta davlat orasida 81-pog'onani egalladi<sup>1</sup>. Mazkur reytingda mamlakatda ijro hokimiyati ustidan sud nazoratining samarali tashkil etilganligi muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan odil sudlovga erishishda ma'muriy sudlarda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomini kuchaytirish, inson huquq va erkinliklarini ishonchli ta'minlash, shuningdek, ma'muriy sud ish yurituvchi qonunchiligini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish va ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomini rivojlantirishga oid mavjud kamchiliklarni tashkiliy-huquqiy jihatdan bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ma'muriy sud ishlarini yuritishda arizachi, javobgar, uchinchi shaxslar, prokuror, davlat organi va boshqa shaxslar huquqiy maqomini ma'muriy yustitsiyaning zamonaviy tendensiyalari asosida yanada takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega.

Jahonda ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqiy maqomini takomillashtirishda jamoaviy shikoyat berish, ularning huquq va majburiyatlariga aniqlik kiritish, sudning faol ishtiroki prinsipining ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomiga ta'sirini baholashga oid ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlarni bajarishga alohida ahamiyat berilmoqda. Xususan, jismoniy va yuridik shaxslarning sudga murojaat qilishga oid konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlashda ma'muriy sudlarda arizachining huquqiy maqomini takomillashtirish, javobgarining mas'ulligini oshirish, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda xalqaro normalar va standart talablarni joriy etish, ishda ishtirok etuvchi shaxslar institutini takomillashtirish tendensiyalarini belgilash va ularning asosiy vazifalarini tahlil etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqiy maqomini tubdan takomillashtirish, sud protsessida arizachi va javobgarining huquq va majburiyatlariga aniqlik kiritish, jamoaviy shikoyat jarayonida ularning huquqiy maqomini belgilash, ma'muriy sudlarda da'vo institutining joriy etilishi munosabati bilan ishda ishtirok etuvchi shaxslar ishtirokining qonunchilik asoslarini yaratish, sud amaliyotini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilib, sudda ishtirok etish uchun zarur konstitutsiyaviy makon va qonunchilik asoslarini yaratish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga

---

<sup>1</sup> <https://worldjusticeproject.org/rule-of-law-index/global>

shikoyat qilish huquqi kafolatlandi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ma’muriy sud ishlariga oid qonunchilik asoslarini takomillashtirish asosiy maqsad sifatida belgilandi. O‘z navbatida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PQ–33-son “Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini sud orqali himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi qonunchilikni takomillashtirish konsepsiyasi tasdiqlanib<sup>2</sup>, O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy sudlar faoliyatini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari belgilanishi mazkur sohani har tomonlama tadqiq etish zarurligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 25-yanvardagi Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi (keyingi o‘rinlarda MSIYtK), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-fevraldagi PF-4966-son “O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 24-iyuldagi PF–6034-son “Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari va 2025-yil 30-yanvardagi PQ–33-son “Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini sud orqali himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori hamda mavzuga oid boshqa qonun va qonunosti hujjatlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>3</sup>.** Ma’muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqiy maqomini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar rivojlangan xorijiy mamlakatlarning oliy ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida, jumladan, Harvard University, Stanford University, University of Georgia (AQSH), University of Oxford, University of Cambridge (Buyuk Britaniya), Deutsche Universität für Verwaltungswissenschaften Speyer (Germaniya), Leiden University (Niderlandiya), The University of Tokyo (Yaponiya), Rossiya Federatsiyasi Hukumati huzuridagi Qonunchilik va qiyosiy huquqshunoslik instituti (Rossiya), Qonunchilik va huquqiy axborot instituti (Qozog‘iston), Qonunchilik milliy markazi (Tojikiston), Davlat va huquq instituti (Qirg‘iziston)da olib borilmoqda.

Dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida quyidagi ilmiy tadqiqot natijalariga erishilgan, jumladan, ma’muriy huquq va boshqaruvni

---

<sup>2</sup> Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.01.2025-y., 07/25/33/0091-son.

<sup>3</sup> Qarang: <https://hls.harvard.edu>; <https://law.stanford.edu>; <https://www.law.uga.edu>; <https://www.law.ox.ac.uk>; <https://www.law.cam.ac.uk>; <https://www.uni-speyer.de>; <https://www.universiteitleiden.nl>; <https://www.u-tokyo.ac.jp>; <https://izak.ru>; <https://www.adilet.gov.kz>; <https://www.adlia.tj>; <https://ilim.namba.kg> va boshqa manbalar.

modernizatsiya qilish, raqamlashuv sharoitida ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqiy maqomini takomillashtirish asoslantirilgan (*Deutsche Universität für Verwaltungswissenschaften Speyer*), ma'muriy sud ishlarini yuritishda davlat organlari javobgarligi kuchaytirish lozimligi asoslantirilgan (*Leiden University*), ma'muriy sudlarda jamoaviy shikoyat tizimini takomillashtirish taklif etilgan (*European University*), huquqiy texnologiyalar, raqamlashtirish va elektron ma'lumotlar boshqaruvi orqali fuqarolar, shu jumladan, ishtirokchilarning protsessual-huquqiy maqomini takomillashtirish taklif etilgan (*UAB Institute of Law and Technology*).

Shuningdek, bugungi kunda dunyoda mazkur masalalar bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda: ommaviy huquq doirasi yuridik shaxsning maqomini belgilash, ma'muriy ishlarni ko'rib chiqishda birinchi instansiya sudi doirasida ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlariga amal qilinishi ustidan protsessual nazorat institutini takomillashtirish, ma'muriy sud ish yurituvining oqilona muddati prinsipini joriy qilish, ma'muriy sud ish yurituvida vakillik institutini takomillashtirish, ma'muriy sudlarda arizachi tomonidan ma'muriy organga majburiyat yuklashga oid asosiy talab sifatida murojaat qilish huquqini belgilash shular jumlasidandir.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mamlakatimizda ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomini takomillashtirish masalalari mustaqil va yaxlit monografik tadqiqot sifatida birinchi marta tadqiq etilgan.

Ushbu mavzuning ayrim xususiyatlari bo'yicha ayrim milliy huquqshunos olimlarimiz o'z ilmiy ishlari, o'quv adabiyotlari doirasida tadqiqotlar olib borganlar. Jumladan, E.T. Xojiyev, G.T. Xakimov, J.N. Nematov, L.B. Xvan, A.A. Li, I.A. Xamedov, Sh.I. Shayzakov, D.R. Artikov, M.U. Eshimbetov va Sh.B. Bakayev ma'muriy yustitsiyaning turli jihatlarini nuqtayi nazaridan ilmiy tadqiq qilgan. Fuqarolik va iqtisodiy protsessual huquqi doirasida Sh.Sh. Shoraxmetov, Z.N. Esanova, F.X. Otaxonov, X.T. Azizov, D.Y. Xabibullayev, S.F. Inoyatova, F.B. Ibratova va boshqa huquqshunos olimlar tomonidan muayyan darajada o'rganilgan<sup>4</sup>.

MDHga a'zo mamlakatlarda ma'muriy sud ish yurituvida ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomi masalalari H. Lukianova, Y. Polanovskiy M.K. Treushnikova, A.I. Staxov, V.V. Yarkov, Y.A. Naxova, N.I. Kosyakova, V.E. Chirkin, E.A. Suxanov, V.Y. Kurbatov, N.M. Korkunov, O.V. Mixaylenko, D.B. Abushenko, Y.M. Batuxtina, S. Alekseyev, S.A. Korf, G.V. Shershenevich, M.A. Vikut, R.E. Gukasyan, A. Vilxovik, V.P. Gribanov va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan<sup>5</sup>.

Chet el olimlaridan mazkur mavzuning ayrim jihatlarini quyidagilar tomonidan o'rganilgan: Buyuk Britaniyada – K. Elias, A. Tomkins, P. Kreyg (sudda ishtirok etuvchi shaxslardan to'g'ri xulqda bo'lish, dalillar taqdim etish, yurisdiksiyani suiiste'mol qilmaslik kabi majburiyatlarni bajarishni talab etishni nazariy asoslab bergan), K. Xarlou va R. Rous (barcha ishda ishtirok etuvchi shaxslarning maqomi

---

<sup>4</sup> Mazkur tadqiqotlar ro'yxati foydalanilgan adabiyotlarda ko'rsatilgan.

<sup>5</sup> Mazkur tadqiqotlar ro'yxati foydalanilgan adabiyotlarda ko'rsatilgan.

umumiy fuqarolik protsessual qoidalari orqali belgilanishini tahlil qilib, uning afzalliklari va kamchiliklarini ko'rsatgan); Germaniyada – Fris Verner (ma'muriy sud ish yurituvda ishtirok etuvchilarning huquqiy maqomi alohida ravishda tartibga solinishini lozimligini asoslab bergan), F. Shtax, E. Shmidt-Asmann va X. Volflar (ishtirok etuvchi shaxslarning **“protsessual faolligi”** (Prozessförderungspflicht) tamoyili); Fransiyada J. Rivero, P. Bon, J. Morel (sud ishtirokchilari majburiyatlarini sudning himoya funksiyasini amalga oshirishdagi hal qiluvchi mexanizm sifatida asoslab bergan), J. Vedel (ishtirokchilar huquqlari alohida ma'muriy sudlov tizimi orqali tartibga solinishi zarurligi), Per Xenrik Lindblom, Elen van Lit (sherik ishtirokchilik masalasi) tomonidan tadqiq etilgan<sup>6</sup>.

Mamlakatimizda ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomini takomillashtirish mavzusi shu vaqtgacha kompleks ilmiy tadqiq etilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida davlat boshqaruvini yanada erkinlashtirishning asosiy yo'nalishlari” mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqiy maqomini, uning tabiatini, mohiyatini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish hamda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligini, milliy doktrinadagi ilmiy va amaliy konseptual yondashuvlarni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ma'muriy sud ishlarini yuritish subyekti tushunchasi va huquqiy tavsifini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish;

ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy tavsifi va tasnifi orqali ilmiy kategoriyalar va doktrinal yondashuvlarning mazmun-mohiyatini ochib berish hamda tegishli ilmiy ta'riflar berish;

ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomini huquqiy tartibga solish va uning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish;

ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqlarini o'rganish va rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning majburiyatlarini tahlil qilish va qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

ma'muriy sud ishlarini yuritishga jamoaviy shikoyat institutini joriy qilishning tashkiliy-huquqiy mexanizmini ilmiy tadqiq etish va takliflar berish;

ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomiga oid huquqiy modellarni tahlil qilish;

ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqiy maqomining huquqiy asoslarini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini tahlil qilish;

xorijiy mamlakatlarda ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqiy maqomining qonunchilik asoslarini qiyosiy-huquqiy jihatdan o'rganish

---

<sup>6</sup> Mazkur tadqiqotlar ro'yxati foydalanilgan adabiyotlarda ko'rsatilgan.

asosida ularning ijobiy tajriba va amaliyotini milliy ma'muriy yustitsiya institutiga joriy etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqiy maqomini takomillashtirish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmetini** ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqiy maqomiga doir qonunchilik hujjatlari, milliy huquqni qo'llash amaliyoti, sud amaliyotiga doir hujjatlar, xalqaro standartlar, yuridik fanda mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar, huquqiy kategoriyalar hamda ayrim rivojlangan xorijiy mamlakatlarning qonunchiligi va tajribasi tashkil etadi

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot olib borishda tarixiy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, aniq sotsiologik, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, statistik ma'lumotlar tahlili, qonunchilik hujjatlarini sharhlash, kuzatuv, sotsiologik so'rovlar o'tkazish va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish kabi usullar qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ish muhokamasining vaqti va joyi to'g'risida tegishli tarzda xabardor qilingan javobgar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar sud majlisiga kelmasa, ish ularning yo'qligida ko'rilishi mumkinligi asoslangan;

ishda ishtirok etuvchi taraflar, guvohlar va boshqa shaxslar elektron ma'lumotlarni ushbu ma'lumotlarning ko'chirma nusxasini elektron jismdan elektron ma'lumotlar mavjud bo'lgan boshqa elektron jismga olish orqali taqdim etishga haqliligi asoslangan;

ishda ishtirok etuvchi taraflar, guvohlar va boshqa shaxslar raqamli dalillarning ko'chirma nusxalarini qog'ozda chop etilgan shaklda taqdim etish huquqiga egaligi asoslangan;

qonunda prokurorning ishtirok etishi nazarda tutilgan bo'lib, biroq u sud muhokamasining vaqti va joyi to'g'risida tegishli tarzda xabardor qilinmasdan ko'rilgan ishlar bo'yicha kassatsiya protesti kiritish to'g'risidagi masalasini hal qilish uchun tegishli suddan ishni talab qilib olishga haqliligi asoslangan;

ishda ishtirok etuvchi shaxsning shuningdek, ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, ammo huquqlari va majburiyatlari to'g'risida sud hal qiluv qarori qabul qilgan shaxsning huquqiy vorisi tomonidan berilgan taftish shikoyatiga huquq o'tganligi faktini yoki bunday huquq o'tishi mumkinligini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinishi kerakligi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqiy maqomini takomillashtirishga oid ilmiy tushuncha hamda kategoriyalarning mazmun-mohiyati ochib berilgan va tegishli ilmiy doktrinal ta'riflar ishlab chiqilgan;

ilmiy-nazariy jihatdan ommaviy-huquqiy munosabatlarda yuridik shaxslarning o'ziga xos xususiyatlari mavjudligi va xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, mamlakatimizda "Ommaviy huquqning yuridik shaxslari to'g'risida"gi qonun qabul qilish lozimligi asoslantirib berilgan;

ma'muriy sud ishlarini yuritishda jamoaviy shikoyat institutini joriy qilishning asosiy mezonlari ilmiy doktrinal qarashlar va xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida asoslantirilgan;

ilmiy-nazariy qarashlar va sud amaliyotida mavjud muammolardan kelib chiqib, ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlarini qonunchilikda aniq belgilash lozimligi asoslantirilgan;

ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudyaning alohida fikri bilan tanishish huquqini milliy qonunchilikka kiritish lozimligi asoslantirilgan;

ma'muriy sud ish yurituvining oqilona muddati prinsipini milliy ma'muriy sud tizimida joriy qilish ilmiy-nazariy qarashlar va xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida asoslantirilgan;

fuqarolar o'z ishlarini sud hujjatlarini qayta ko'rish bosqichida shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) vakillar orqali yuritishga majburligiga oid norma milliy qonunchilikka kiritish lozimligi asoslantirilgan;

ma'muriy sudlarda arizachi tomonidan ma'muriy organga majburiyat yuklashga oid asosiy talab sifatida murojaat qilish huquqini qonunchilikda belgilash lozimligi asoslab berilgan;

ma'muriy sud ishlarini yuritishda davlat organi va boshqa shaxs o'zi bergan ariza bo'yicha ish yuritishda qatnashishlari shartligi asoslantirilgan;

uchinchi shaxslarni nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar va nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslarga ajratish amaliyotidan voz kechish lozimligi asoslantirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiya ishining xulosasida, shu jumladan, tadqiqot ishining har bir bobi yakunida nazarda tutilgan xulosalarda ifodalangan ilmiy-nazariy qoidalar, normativ-huquqiy hujjatlar bazasini takomillashtirish va huquqni qo'llash amaliyotini samarali tashkil etishga oid taklif va tavsiyalar ma'muriy huquq va ma'muriy sud ish yurituv fanlarida mavjud ilmiy-nazariy yondashuvlarga, sohaga tegishli xalqaro standartlar, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi, milliy qonun va qonunosti hujjatlariga, shuningdek, huquqni qo'llash amaliyotiga asoslanganligi, shuningdek, ijtimoiy so'rov tahliliga tayangan holda, dissertatsiya ishidagi ma'lumot bazasining ishonchliligi rasmiy nashrlarda e'lon qilingan axborotlardan, shu bilan birga, monografik tadqiqotlarda tekshirilgan va nashr etilgan adabiyotlardan foydalanilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalardan ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqiy maqomini tartibga soluvchi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati undan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan sudga murojaat qilish huquqini hayotga tatbiq etishda, ma'muriy sudlar faoliyatini samarali tashkil etishda, o'quvchi va talabalar uchun zarur ilmiy, o'quv va uslubiy adabiyotlar tayyorlashda, yuridik oliy ta'lim muassasalari hamda yuridik litsey va texnikumlarda Ma'muriy sud ish yurituv modulining ma'ruza, seminar va mustaqil ta'lim mashg'ulotlarini o'tishda, ilmiy tadqiqotlar o'tkazishda hamda sud-huquq tizimini yanada isloh qilish jarayonida keng foydalanilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** “Ma’muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomini takomillashtirish masalalari” mavzusidagi tadqiqot bo’yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

ish muhokamasining vaqti va joyi to’g’risida tegishli tarzda xabardor qilingan javobgar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar sud majlisiga kelmasa, ish ularning yo’qligida ko’rilishi mumkinligi kerakligi haqidagi taklifdan 2024-yil 30-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga sudlarda ishlarni ko’rishda prokurorning vakolatlarini ta’minlashga qaratilgan o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish to’g’risida”gi O‘RQ–968-son Qonun 3-moddasi 1-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 17-oktabrdagi №9/dn-212-son dalolatnomasi). Ushbu taklifni joriy etilganligi ma’muriy sud ishlarining belgilangan vaqt va tartibda ko’rib chiqilishiga xizmat qilgan;

ishda ishtirok etuvchi taraflar, guvohlar va boshqa shaxslar elektron ma’lumotlarni ushbu ma’lumotlarning ko’chirma nusxasini elektron jismdan elektron ma’lumotlar mavjud bo’lgan boshqa elektron jismga olish orqali taqdim etishga haqliligiga oid taklifdan 2024-yil 21-noyabr kuni kuchga kirgan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga raqamli dalillar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish to’g’risida”gi Qonun bilan Ma’muriy sud ishlarini yuritish to’g’risidagi kodeksga qo’shimcha kiritilgan 75<sup>1</sup>-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2025-yil 6-oktabrdagi 27/2-273-25-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi ma’muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning elektron dalil taqdim etish tartibining soddalashishiga xizmat qilgan;

ishda ishtirok etuvchi taraflar, guvohlar va boshqa shaxslar raqamli dalillarning ko’chirma nusxalarini qog’ozda chop etilgan shaklda taqdim etish huquqiga egaligiga oid taklifdan 2024-yil 21-noyabr kuni kuchga kirgan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga raqamli dalillar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish to’g’risida”gi Qonun bilan Ma’muriy sud ishlarini yuritish to’g’risidagi kodeksga qo’shimcha kiritilgan 75<sup>2</sup>-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2025-yil 6-oktabrdagi 27/2-273-25-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi raqamli dalillarning sudga qulay shaklda taqdim etilishiga xizmat qilgan;

qonunda prokurorning ishtirok etishi nazarda tutilgan bo’lib, biroq u sud muhokamasining vaqti va joyi to’g’risida tegishli tarzda xabardor qilinmasdan ko’rilgan ishlar bo’yicha kassatsiya protesti kiritish to’g’risidagi masalani hal qilish uchun tegishli suddan ishni talab qilib olishga haqliligiga oid taklifdan 2024-yil 30-sentabrda kuchga kirgan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga sudlarda ishlarni ko’rishda prokurorning vakolatlarini ta’minlashga qaratilgan o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish to’g’risida”gi Qonun bilan Ma’muriy sud ishlarini yuritish to’g’risidagi kodeksning 230<sup>1</sup>-moddasiga kiritilgan qo’shimchani ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2025-yil 6-oktabrdagi 27/2-273-25-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi ma’muriy sud ishlarini yuritishda prokuror ishtirokining takomillashuviga xizmat qilgan;

ishda ishtirok etuvchi shaxsning, shuningdek, ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, ammo huquq va majburiyatlari to'g'risida sud hal qiluv qarori qabul qilgan shaxsning huquqiy vorisi tomonidan berilgan taftish shikoyatiga huquq o'tganligi faktini yoki bunday huquq o'tishi mumkinligini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinishi kerakligi haqidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining Oliy sudi Plenumining 2024-yil 25-iyundagi "Sudlar tomonidan ma'muriy ishlarni taftish tartibida ko'rishning ayrim masalalari to'g'risida"gi 22-son qarori ikkinchi bandi beshinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2025-yil 3-iyuldagi 08/305-25-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi ma'muriy sudlarda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqiy maqomini belgilab berishda, ularning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot natijasi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, dissertatsiyaning asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan OAK nashrlarida 13 ta ilmiy maqola (12 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, o'n bitta paragrafni o'z ichiga olgan 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 238 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** (fan doktori (DSc) dissertatsiyasining annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan aloqasi, uning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqiy maqomining nazariy-huquqiy tavsifi**" deb nomlanib, unda ma'muriy sud ish yurituv subyekti tushunchasi va turlari, ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy tavsifi, ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqiy maqomini huquqiy tartibga solish kabi masalalar tahlil qilingan.

Tadqiqotchi ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqiy maqomini tahlil qilishda ko'plab olimlarning (E.T. Xojiev, G'.T. Xakimov, J.N. Nematov, L.B. Xvan, A.A. Li, I.A. Xamedov, Sh.I. Shayzakov, D.R. Artikov, M.U. Eshimbetov va Sh.B. Bakayev) fikrlaridan foydalanib, ular bilan munozaraga kirishgan.

Dissertant ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning yuridik tavsifiga aniqlik kiritishda "ma'muriy sud ish yurituv subyektlari" tushunchasi hamda uning tasnifi muhim ekanligini hisobga olib, ushbu masalani alohida ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilgan. Bu borada **"huquqiy maqom"** kategoriyasini asosiy mezon sifatida asoslab bergan. Muallifning yondashuviga ko'ra, huquqiy maqom shaxsning qonun hujjatlarida belgilangan subyektiv huquq va majburiyatlarga ega bo'lish qobiliyatini ifodalaydigan umumlashtirilgan huquqiy tushuncha hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, ma'muriy sud ish yurituvda ishtirok etuvchi subyektlar ish yuritish jarayonida tutgan o'rni, ularga berilgan vakolatlar hamda ishning yakuniy natijasiga ko'rsata oladigan ta'sir darajasiga qarab farqlanadi. Bunda har bir subyektning protsessual faolligi, huquq va majburiyatlar hajmi uning manfaatlar pozitsiyasini belgilab berishi ta'kidlanadi. Natijada ma'muriy sud ish yurituv subyektlari bir xil huquqiy maqomga ega bo'lmagan, balki ishdagi ishtiroki xususiyati va manfaatlar yo'nalishiga qarab turli huquqiy holatda bo'lgan shaxslar sifatida namoyon bo'lishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Tadqiqotchi ma'muriy sud ish yurituv doktrinasini va qonunchiligiga ko'ra protsessning barcha ishtirokchilarini ko'rib chiqilayotgan ishga bo'lgan munosabati va shaxsning muayyan jarayondagi protsessual roliga qarab ma'lum guruhlariga bo'lish mumkin degan xulosaga kelgan hamda ushbu mezonlarga muvofiq ma'muriy sud ish yurituvining subyektlarini uchta guruhga ajratish mumkinligini ta'kidlaydi: a) ma'muriy ishlarni hal qiluvchi shaxslar (sud, sudyalari); b) ishda ishtirok etuvchi shaxslar (taraflar, uchinchi shaxslar, prokuror, boshqa shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilgan shaxslar va boshqalar); d) ishda ishtirok etuvchi shaxslar bilan birga sud jarayonida ishtirok etadigan ma'muriy sud ish yurituvining boshqa ishtirokchilari.

Dissertant ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar maqomini aniqlashtirishda **"huquqiy manfaat"** tushunchasi asosiy rol tutishini asoslab bergan. Jumladan, protsessual manfaat o'ziga xos huquqiy manfaat sifatida qaralishi va u sud ish yurituvining manfaatli yakunlanishi sifatida tushunilib, nafaqat sud faoliyatini, balki ishda ishtirok etuvchi barcha shaxslarning protsessual funksiyalarini amalga oshirishga xizmat qilishiga alohida urg'u bergan. Shuningdek, ilmiy-nazariy manbalarni tadqiq qilgan holda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy manfaati tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta'rifi bergan: "Ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqini sud tomonidan himoya qilish, sud qarorini chiqarish bilan ishni belgilangan protsessual shaklda ko'rib chiqish va hal qilishdan manfaatdorlikdir". Shuningdek, tadqiqotchi ilmiy-nazariy manbalarga tayangan holda huquqiy manfaatni 3 ta turga: a) shaxsiy manfaatlar (taraflar va uchinchi shaxslar); b) davlat manfaatlari; d) jamoat manfaatlariga bo'lish lozimligini asoslantirib bergan.

Muallif ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy tavsifi yuzasidan ko'plab olimlarning tadqiqot ishlarini tahlil qilgan holda, sohaning ilmiy-nazariy va huquqiy asoslarini takomillashtirish lozimligini asoslab bergan. Xususan, tadqiqot ishi doirasida bir qator so'rovnomalar o'tkazib, asosli savollarni ilgari surgan. Misol uchun, "Amaldagi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlari yetarlicha belgilab berilgan deb hisoblaysizmi?" degan savolga respondentlarning aksariyati (65,4%) "qisman yetarli" deb javob bergan. Bu esa mazkur masalani ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish dolzarbligini ko'rsatadi.

Dissertant ma'muriy sud ish yurituvda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning eng muhim toifasi hisoblangan taraflarning protsessual funksiyalari o'zaro farq qilishini alohida ta'kidlaydi. Tadqiqotchining yondashuviga ko'ra, "taraflar" tushunchasi moddiy hamda protsessual manfaatlarini himoya qilish maqsadida sud jarayonida faol ishtirok etadigan, nizoni hal etish bilan bog'liq sud xarajatlarini, umumiy qoidaga ko'ra, o'z zimmasiga oladigan hamda bahsli moddiy-huquqiy munosabatlarning bevosita subyektlari hisoblangan shaxslarni ifodalaydi. Shu ma'noda taraflar ma'muriy sud ish yurituvda nafaqat protsessual ishtirokchi, balki nizoning huquqiy mazmuni va uning natijasi bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liq bo'lgan asosiy subyektlar sifatida namoyon bo'ladi.

Dissertant ilmiy ish doirasida qator olimlarning qarashlarini tahlil qilib, ularning aksariyati davlat va uning organlarini klassik ma'nodagi yuridik shaxs sifatida e'tirof etish mumkin emas, deb hisoblashini qayd etadi. Biroq muallif mazkur yondashuvni tanqidiy baholab, davlat va uning organlari o'rtasidagi yuridik shaxs maqomiga doir nomutanosiblikni yuridik shaxslarning maxsus toifasi — ommaviy (ma'muriy) yuridik shaxs sifatida tan olish orqali hal etish maqsadga muvofiq, degan xulosaga keladi.

Davlat va huquq nazariyasida davlat an'anaviy ravishda ommaviy-huquqiy hodisa sifatida talqin qilinadi. Yuridik shaxs organlari bilan davlat organlari o'rtasida muayyan o'xshashliklar mavjud, biroq davlat organlari faqat davlatga xos bo'lgan maxsus vakolatlarga, ya'ni hokimiyat vakolatlariga ega bo'lib, ularni amalga oshirish ham alohida ma'muriy-huquqiy usullar orqali ta'minlanadi. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, fuqarolik huquqi o'z normalari orqali iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi barcha subyektlarning xilma-xilligini qamrab olishga qodir emas. Shu sababli davlat va uning organlariga ommaviy yuridik shaxs sifatida qarash ilmiy va amaliy jihatdan asosli hisoblanadi.

Tadqiqotchi ma'muriy sud ish yurituvda javobgar sifatida ishtirok etadigan tarafning yuridik shaxs maqomini aniq belgilash muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Ommaviy huquq yuridik shaxslarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, mamlakatimizda "Ommaviy huquqning yuridik shaxslari to'g'risida" alohida qonun qabul qilinishi zarurligi asoslab beriladi.

Shu bilan birga, tadqiqotchi ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqiy maqomini huquqiy tartibga solish masalalarini alohida tadqiq qilib, ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomi aks etgan eng asosiy qonun hujjati Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeks ekanligi, mamlakatimizda mazkur kodeksning mavjudligi eng to'g'ri yo'l hisoblanishi, chunki u fuqaro va davlat organi o'rtasidagi tengsizlikni bartaraf qilish, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy maqomini aniq belgilash va fuqarolarning sud orqali himoya huquqini kafolatlashga qaratilganligini asoslab bergan. Bu borada Kontinental Yevropa (Germaniya, Fransiya, Ispaniya, Estoniya va boshqalar) davlatlari tajribasi muhim o'rin tutganligini tahlil qilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlari hamda uni amalga oshirish mexanizmlari**" deb nomlanib, unda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqlarining huquqiy tavsifi, ishda ishtirok etuvchi shaxslar majburiyatlarining o'ziga xosligi,

ma'muriy ishlarni ko'rib chiqishda birinchi instansiya sudi doirasida ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlariga amal qilinishi ustidan protsessual nazoratning xususiyatlari qiyosiy-huquqiy tahlil qilinib, milliy qonunchilikni takomillashtirish borasida takliflar ilgari surilgan.

Ta'kidlash lozimki, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqlari ilmiy manbalarda turlicha tasniflangan. Xususan, H. Lukianova, Y. Polanovskiy, M.K. Treushnikova, V.V. Yarkov, D.B. Abushenko, E. M. Batuxtina va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqlari mazmuniga ko'ra axborot olish va hujjatlardan foydalanish, izoh berish va munosabat bildirish, dalillar bilan ishlash, shikoyat qilish va norozilikni ifodalash hamda protsessual tashabbus huquqlariga bo'lib tahlil qilingan.

Dissertantning fikricha, ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqlarini quyidagicha tasniflash mumkin: axborot olish huquqi; izoh berish huquqi; dalillar bilan ishlash huquqi; protsessual tashabbus huquqi; shikoyat qilish huquqi.

Muallif tahlillar natijasida ishda ishtirok etuvchi shaxslarning axborot olish huquqlarini takomillashtirishga qaratilgan bir qator takliflarni ilgari suradi.

Birinchidan, ishni ko'rib chiqayotgan sud tarkibini bilish huquqi ishda ishtirok etuvchi shaxslarning eng muhim protsessual kafolatlaridan biri sifatida e'tirof etilishi lozim. Amaldagi milliy qonunchilikda mazkur huquq alohida va mustaqil tarzda belgilangan emas. Shu bilan birga, sud tarkibi to'g'risida xabardor bo'lish imkoniyati ishda ishtirok etuvchilarga sudyalarning xolisligini baholash, zarur hollarda esa rad etish institutidan samarali foydalanish imkonini beradi. Mazkur huquqni qonunchilik darajasida alohida belgilab qo'yish ma'muriy sud ish yurituvining ochiqqligi va oshkoraligini ta'minlashga, shuningdek, sud muhokamasining adolatli va xolis tarzda amalga oshirilishi uchun qo'shimcha huquqiy kafolat yaratishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, ishda ishtirok etuvchi shaxslar ma'muriy ish bo'yicha sudyaning alohida fikri bilan tanishish huquqi mavjud. Biroq milliy qonunchilikda mazkur huquq mavjud emas. Xususan, MSiYtKning 19-moddasiga ko'ra, ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudyaning alohida fikri bilan tanishtirilmasligi belgilab o'tilgan.

Sudya ishni ko'rib chiqish jarayonida sud tarkibidagi boshqa sudyalar bilan fikri to'g'ri kelmagan hollarda u alohida fikr bildirishi mumkin. Bu sudyaning huquqidir va sudning asosiy qaroridan alohida, mustaqil yozma shaklda bayon etiladi. Sudyaning alohida fikri sud mustaqilligi va ochiqqlik tamoyillaridan biri sifatida Yevropa Kengashi, YXHT va Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi amaliyotida tan olingan. Alohida fikr ma'muriy ishlar yuzasidan chiqarilgan qarorning shaffofligi va mustahkam huquqiy tahlilini ta'minlaydi.

Tadqiqotchining fikriga ko'ra, mazkur huquqni milliy qonunchilikda belgilash muhim ahamiyatga ega. Bu esa ma'muriy sud ish yurituvida xalqaro standartlarga muvofiqlikni hamda ishda etuvchi shaxslarning huquqlarini to'laonli ta'minlashga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, MSiYtKning 19-moddasi ikkinchi qismidan "Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudyaning alohida fikri bilan tanishtirilmaydi" jumlasini chiqarib tashlash lozimligi asoslantirib berilgan.

Tadqiqot ishi doirasida ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning majburiyatlari rasmiy (protsessual) majburiyatlar, dalillarni taqdim etish

majburiyatlari va axloqiy majburiyatlar kabi turlarga bo'lgan holda tahlil qilingan. Tahlil jarayonida sud amaliyotida muammo bo'layotgan ariza (shikoyat)ga qo'yilgan ayrim talablar bugungi kun talablariga javob bermasligi uchun milliy qonunchilikdan chiqarib tashlash lozimligi asoslab berilgan.

Shuningdek, sudning faol ishtiroki prinsipi asosida sudya taraflarga huquqiy ko'mak berishi mumkin. Mazkur holatni shaxsiy manfaat sifatida qaramaslik kerak. Shu nuqtayi nazardan tadqiqotchi sudyaning sudning faol ishtiroki prinsipi asosida huquqiy oqibatlarini tushuntirish orqali taraflarga huquqiy ko'magi (dastlabki huquqiy fikr) sudyani rad qilish uchun asos bo'lmasligi lozim, deb hisoblaydi.

Tadqiqotchi tomonidan ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlarining huquqiy tavsifi va ma'muriy ishlarni ko'rib chiqishda birinchi instansiya sudi doirasida ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlariga amal qilinishi ustidan protsessual nazoratning xususiyatlari qiyosiy-huquqiy tahlil asosida yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Ma'muriy sud ishlarini yuritishda bir nechta arizachi va javobgar ishtirok etishining ayrim protsessual jihatlari”** deb nomlanib, unda ma'muriy sud ish yurituvda bir nechta arizachi va javobgarning ishtirok etish shakllari, xususan, jamoaviy shikoyat institutini joriy qilish muammolari va asosiy mezonlari milliy qonunchilikni takomillashtirish nuqtayi nazaridan tahlil qilingan.

Mazkur bob doirasida jamoaviy shikoyat institutining o'ziga xos xususiyatlari xorijiy olimlar V. Vey, S. Vot, A. Grinover, Y. Kaladzhich, P. Lindblom, E. Lit, R. Maleron, D. Uoker kabi tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari hamda chet el davlatlari amaliyoti asosida atroflicha tahlil qilingan. Mazkur manbalarda jamoaviy shikoyat bir guruh shaxslar nomidan ish yuritish vakolatiga ega bo'lgan vakilning sudga murojaati orqali amalga oshiriladigan, ish uchun umumiy bo'lgan holatlarga asoslangan hamda ma'muriy va boshqa ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan moddiy huquqlar va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan talab sifatida talqin etilishi ustuvor deb ko'rsatiladi.

Dissertant ilmiy-nazariy va xorijiy mamlakatlar tajribasiga tayangan holda, jamoaviy ma'muriy shikoyat tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta'rifini bergan:

“Jamoaviy ma'muriy shikoyat — ma'muriy yoki boshqa ommaviy-huquqiy munosabatlarning ishtirokchilari bo'lgan fuqarolar va yuridik shaxslarning nomuayyan shaxslar manfaatini ko'zlab, yagona nizo predmeti va asos doirasida yagona javobgarga qaratilgan shikoyatidir”.

Dissertant tomonidan bugungi kunda jamoaviy shikoyat institutini joriy qilgan davlatlarda mazkur institutni rivojlantirish yuzasidan quyidagi masalalar bo'yicha tendensiyalar kuzatilayotgani tahlil qilingan: jamoaviy ma'muriy shikoyat arizasiga qo'shilish uchun arizaning mazmuni; ma'muriy ish qo'zg'atilgandan keyin jamoaviy ma'muriy shikoyat arizasiga qo'shilgan shaxslarning huquqiy holati; jamoaviy ma'muriy shikoyatlar bo'yicha ma'muriy ishlarni ko'rib chiqish va hal qilishning maxsus muddatlari; bir guruh shaxslar manfaatlarini ko'zlab ish yurituvchi shaxsni almashtirish (vakolatlarini tugatish) masalasi; guruh a'zolarini shaxslar guruhidan chiqarish masalasi; jamoaviy ma'muriy shikoyat bo'yicha ma'muriy ishda sud hujjatlari mazmuniga qo'yiladigan maxsus talablar; bir guruh shaxslarga sud hujjatlari nusxalarini xabardor qilish va (yoki) yuborishning maxsus tartibi; jamoaviy ma'muriy shikoyat bo'yicha ma'muriy ishda sud hujjatlariga shikoyat qilishning maxsus tartibi.

Dissertant jamoaviy shikoyat instituti joriy etilishini asoslab, uning samarali ishlashi uchun bir qator muhim mezonlarga e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlaydi.

Birinchi mezon jamoaviy shikoyatdan foydalanish sohasiga taalluqli bo'lib, ayrim davlatlar qonunchiligida bunday shikoyatlarni qo'zg'atish mumkin bo'lgan holatlar doirasi cheklanmagan. Bu esa normativ-huquqiy hujjatlar yuzasidan nizolashish, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda boshqa jamoat manfaatlari bilan bog'liq nizolar bo'yicha jamoaviy shikoyat berish imkoniyatini yaratadi.

Ikkinchi mezon jamoaviy shikoyat berish huquqiga ega bo'lgan subyektlar doirasini belgilash bilan bog'liq. Bu borada jahon amaliyotida turli modellar mavjud bo'lib, jamoaviy shikoyatlar jismoniy va yuridik shaxslar, shuningdek, ixtisoslashgan notijorat tashkilotlari tomonidan taqdim etilishi mumkin. Bundan tashqari, prokuror, davlat organi va iste'molchilar huquqlarini himoya qilishga ixtisoslashgan jamoat tashkilotlari ham mazkur huquqdan foydalanishi mumkin.

Uchinchi mezon jamoaviy shikoyat ishtirokchilarini shakllantirish tartibiga taalluqlidir va chet el davlatlari tajribasida "kirish" ("opt-in") va "chiqish" ("opt-out") modellari qo'llaniladi. Ushbu modellarga ko'ra, ishtirokchi jamoaga qo'shilish uchun muayyan faol harakatlarni amalga oshirishi, jumladan, tegishli ariza bilan murojaat qilishi lozim bo'ladi; bunday harakatlar esa ish qo'zg'atilishidan oldin yoki uni ko'rib chiqish jarayonida amalga oshirilishi mumkin.

To'rtinchi mezon jamoaviy shikoyat doirasida qo'llaniladigan huquqiy himoya usullari bilan bog'liq bo'lib, u buzilgan huquqni tan olish, yetkazilgan zararlarni qoplash va shu kabi turli himoya vositalaridan foydalanish imkoniyatini o'z ichiga oladi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi **"Ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqiy maqomining huquqiy asoslarini isloh qilishning nazariy-amaliy masalalari"** deb nomlanib, mazkur bob ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqi maqomiga oid huquqiy modellar, O'zbekistonda ma'muriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar huquqiy maqomining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga bag'ishlangan.

Dissertant tomonidan davlat fuqarolik xizmatiga oid nizolar ma'muriy sudlar tomonidan ko'rilishi belgilanganligi, bu esa mazkur soha sud amaliyotini takomillashtirishni taqozo etishi tahlil qilingan. Shu nuqtayi nazardan, "Davlat fuqarolik xizmatchisi davlat organining qonunga xilof qarorlari, shuningdek, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorini ishlab chiqish lozimligi asoslab berilgan.

Tadqiqotchi ma'muriy sudlarda arizachi tomonidan ma'muriy organga majburiyat yuklashga oid asosiy talab bilan murojaat qilish huquqini qonunchilikda belgilash lozim, deb hisoblaydi. Mazkur taklifni ilmiy-nazariy va sud amaliyoti manbalariga asoslangan holda tahlil qilgan. Shuningdek, mazkur masala doirasida o'tkazilgan so'rovnomada ishtirokchilarning aksariyati ham ushbu taklifni qo'llab-quvvatlaganini ko'rish mumkin. Xususan, "Ma'muriy sudlarda arizachi tomonidan ma'muriy organga majburiyat yuklashga oid asosiy talab sifatida murojaat qilish huquqini qonunchilikda belgilashga qanday qaraysiz?" degan savolga ishtirokchilarning 82 %i "Ijobiy, fuqarolarning sudga murojaat qilishga oid konstitutsiyaviy huquqini to'laqonli ta'minlashga xizmat qiladi", deb javob bergan.

Soha qonunchiligini rivojlantirishning asosiy yoʻnalishlaridan biri sifatida maʼmuriy sud ishlarini yuritishda uchinchi shaxslar maqomiga oid huquqiy asoslarni takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Jumladan, MSIYtKda uchinchi shaxslarni nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar va nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslarga ajratish amaliyotidan voz kechish lozimligi asoslantirilgan.

Tadqiqotchi maʼmuriy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi muhim shaxslardan biri boʻlgan prokuror ishtiroki masalasiga alohida toʻxtalib, qonunda nazarda tutilgan yoki sud mazkur ishda prokuror ishtirok etishi zarur deb topgan hollarda, soliq, bojxona, byudjet, yerga oid huquqiy munosabatlar bilan bogʻliq ishlarda, shuningdek, prokurorning arizasi asosida qoʻzgʻatilgan ishlarda prokuror ishtirok etishi shartligi asoslab berilgan.

